



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



No9
2025

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



*Elektron nashr. 158 sahifa,
2-sentyabr, 2025-yil.*

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F.O. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalarini tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F.O. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – doctor of philosophy (PhD) in psychology

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo‘yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo‘yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta’limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo‘yicha
ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Maktabgacha ta'lim tashkiloti innovatsion faoliyatini rivojlantirish jarayoni.....	14
Ibragimova Gulsanam Nematovna	
Sun'iy intellekt texnologiyalarining ta'lim metodikasida qo'llanilishi va o'qituvchi kompetentligiga ta'siri	22
Abduyev Sheroz	
Boshlang'ich ta'limda "tabiatshunoslik" fanini raqamli platformalar orqali o'qitish metodikasini takomillashtirish: 5e modeli asosida dizayn, baholash va joriy etish.....	25
Ahmadaliyev Shohruh Bahromjon o'g'li	
Ingliz va rus leksikografiyasida o'zbek milliy taom nomlarining lingvistik tahlili	30
Bobojonova Zarina Rashidovna	
Rahbarlarda til bilish darajasi va hissiy intellekt (eq): o'zaro bog'liqlikni o'rganish	34
Isaqlulova Baxtigul Xo'jamovna	
Frazeologizmlarni o'rgatishda matn asosida integratsiyalashgan dars modeli: xorijiy til o'rganuvchilar tajribasi	38
Jumayeva Sadbarg Mirolimovna	
O'zbekistonda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'limni tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari: rivojlangan davlatlar tajribasi tahlili	42
Karimova Moxichehra Rixsibayevna	
Rus va ingliz tillarida sharqona realiyalarning leksik-semantik tasnifi	46
Kulmamatova Aziza Do'stmamat qizi	
TRIZ metodikasi asosida texnokratik bolalar bilan ishlash tizimini takomillashtirish	50
Orifjonova Mavludaxon Abduqaxxor qizi	
Raqamli ta'lim muhitida pedagogik kompetensiyalarni rivojlantirish.....	53
Raximberganova Munajat Muzaffar qizi	
Structure of Social Conflict and Stages of its Development	57
Zaynutdinova Shahnoza Yuldashevna	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijodiy faoliyatini baholash va rag'batlantirish tizimini takomillashtirish.....	60
Abduraxmonova Nigoraxon Akramali qizi	
Expression of National Mental Characteristics in the Uzbek Lullaby.....	64
Alimbayeva Shaxlo Tursunovna	
Bo'lajak "texnologiya" fani o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlashda kreativ kompetentlikni rivojlantirish tizimining pedagogik zarurati	69
Avazov G'oyibnazar Berdiyevich	
Bo'lajak tarbiyachilarda integratsiyalashgan ta'lim faoliyatini rivojlantirish orqali kommunikativ salohiyatini shakllantirish	72
Baratova Yulduz Asadullayevna	
Umumta'lim maktablarida molekulyar fizikani o'qitishning hozirgi holati	76
Boymirov Sherzod Tuxtayevich, Xudoynazarova Visola Musurmonqul qizi	
Ingliz tilini o'qitishda talabalarning mustaqil ta'lim olish kompetensiyasini akt vositasida rivojlantirish	80
Ergasheva Sevaraxon Ravshanjon qizi	
Maktabgacha ta'lim pedagoglarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish istiqbollari.....	84
O'rinova Feruzaxon O'ljayevna, Karimova Gulzodaxon Marufjon qizi	
IIV litsey o'quvchilarining liderlik kompetensiyasini rivojlantirishning psixologik xususiyatlari.....	90
Gadoyeva Dildora Baxtiyorovna	
Improving the System of Human Resource Capacity Management in Higher Education Institutions: Evidence from Uzbekistan	98
Imomov I., Umirova D.	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilarni mantiqiy va tanqidiy fikrlashga o'rgatishning zamonaviy usullari.....	104
Iskandarova Munisa Bahodir qizi	
Tarbiyachi-pedagoglarning emotsional kompetensiyasini rivojlantirish	107
Jovmirzayeva Nargiza Quvondiqovna	



Maktabgacha ta'lim yoshdagi giperaktiv bolalarga ta'lim berishning pedagogik-psixologik usullari	110
<i>Jo'rayeva Nargiza Toirovna, Kamalova Sarvinoz</i>	
Blum taksonomiyasi asosida ilmiy kompetentlikni takomillashtirishning o'ziga xos xususiyatlari.....	113
<i>Mustafayeva Nilufar Ulashovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi ovoz buzulishiga ega bolalar bilan guruhli mashg'ulotlarni tashkil qilish	117
<i>Umida O'tbasarova Mexmanovna, Maksudbekova Xovvajon Xamidbek qizi</i>	
Bolalar jamoasida do'stona munosabatlarni shakllantirishda rivojlanish markazlarida loyiha asosida o'qitish texnologiyasidan foydalanish usullari	121
<i>Quronova Ismigul Xolmurod qizi</i>	
Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda innovatsion metodlar orqali o'z-o'zini rivojlantirish ko'nikmalarini shakllantirish metodikasi.....	126
<i>Rustamova Davlatxon Toyirjon qizi</i>	
Oliy ta'limda tarbiyaviy faoliyatni tashkil etishning innovatsion modellari	131
<i>Sanayeva Surayyo Bobonazarovna</i>	
"Tibbiy radiologiya" fanini o'qitishda pedagogik muloqot orqali tanqidiy operativ muloqotni o'stirishning o'ziga xos xususiyatlari.....	139
<i>Shukurova Sevara Ilhomovna</i>	
Improving High Jump Techniques	143
<i>Tajimbetov Anvar Tengelbayevich</i>	
Filologik va ijtimoiy-siyosiy fanlarda ta'lim jarayonining innovatsion metodlari.....	146
<i>Yuldasheva Dilnoza Bekturodovna</i>	
Понятие логического мышления и его особенности у младших школьников.....	149
<i>Ахмаджонова Нозима Нодиржон кизи</i>	
Интеграция психологии, обучения английскому языку, дошкольного образования и туризма: междисциплинарная модель формирующего опыта	152
<i>Омонуллаева Дилофуза Асадулла кизи</i>	



TARBIYACHI- PEDAGOGLARNING EMOTSIONAL KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH

Jovmirzayeva Nargiza Quvondiqovna

ORCID: 0009-0003-8701-2548

Annotatsiya: Hissiy kompetensiya – bu insonning o'z his-tuyg'ularining sifatini ularni boshdan kechirayotgan paytda anglash qobiliyatidir. Hissiy kompetensiya muammosining o'rganilishi so'nggi yillarda rivojlanib, uning asosiy komponentlari inson salomatligini, ayniqsa, o'qituvchi va tarbiyachilar salomatligini saqlash hamda mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyachi-pedagoglarning emotsional kompetensiyasini shakllantirish mexanizmlari, his-tuyg'ularni boshqarish, muloqot va bolalar bilan ishlash jarayonida emotsiyaning tarbiyachi-pedagoglar faoliyatidagi o'rni tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim tashkiloti, emotsiya, his-tuyg'u, malaka, shakllantirish, munosabat, yondashuv, muloqot, bolalar, ijobiy natija, samarali metodlar, texnologiya, tamoyil.

Abstract: Emotional competence refers to an individual's ability to recognize the quality of their emotions while experiencing them. In recent years, the issue of emotional competence has gained increasing attention, and its core components play a vital role in maintaining and strengthening human health in general, and the health of teachers and educators in particular. This article examines the mechanisms for developing the emotional competence of preschool teachers, including emotion management, communication, and the role of emotions in their professional activities with children.

Key words: preschool education organization, emotion, feeling, competence, formation, attitude, approach, communication, children, positive outcome, effective methods, technology, principle.

Аннотация: Эмоциональная компетентность – это способность человека осознавать качество собственных эмоций в момент их переживания. Проблема эмоциональной компетентности в последние годы стала активно изучаться, и её базовые компоненты способствуют сохранению и укреплению здоровья человека в целом, а также здоровья педагогов и воспитателей в частности. В статье анализируются механизмы формирования эмоциональной компетентности педагогов дошкольных образовательных организаций, управление эмоциями и общением, а также роль эмоций в профессиональной деятельности воспитателей.

Ключевые слова: дошкольная образовательная организация, эмоция, чувство, компетентность, формирование, отношение, подход, общение, дети, положительный результат, эффективные методы, технология, принцип.

KIRISH

Mamlakatimizda maktabgacha ta'lim sohasini rivojlantirishga oid amalga oshirilayotgan islohotlar o'zining ijobiy samarasini bermogda. Bolalarning maktabgacha ta'limga qamrab olish darajasi keskin oshdi. Yangi maktabgacha ta'lim tashkilotlari barpo etilmoqda. Sohaga davlat-xususiy sherikchilik mexanizmi joriy etildi, maktabgacha ta'limning yangi shakllari joriy etilmoqda. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari zamonaviy o'quv-didaktik adabiyotlar bilan ta'minlandi. Bugungi kunda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim va tarbiya jarayonini sifatini yaxshilashga e'tibor qaratilmoqda. Umuman olganda maktabgacha ta'lim tizimi tubdan yangilandi.

Mamlakatimizda o'tkazilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni, xorijiy mamlakatlar ilg'or tajribasi hamda ilm-fan yutuqlari va zamonaviy informatsion-kommunikativ texnologiyalarni inobatga olgan holda, maktabgacha ta'lim tizimida ma'nan mukammal va intellektual rivojlangan shaxsni tarbiyalashdir.

TAHLIL VA NATIJALAR

Kasbiy kompetentlik – bu shaxsning o'z kasbi bilan bog'liq vazifalarni muvaffaqiyatli bajarish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma, malaka va tajribaga ega bo'lishi hamda ulardan samarali foydalanish qobiliyatidir. Bu tushuncha kasbiy sohada mutaxassisning malakali va sifatli faoliyatini ta'minlashda asosiy omillardan biri

hisoblanadi. Kasbiy kompetentlik nafaqat individual muvaffaqiyatning kaliti, balki tashkilotlar va umuman jamiyatning barqaror rivojlanishi uchun ham muhimdir. Shu sababli har bir sohada kasbiy bilim va ko'nikmalarni oshirishga alohida e'tibor qaratish zarur.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilarining hissiy malakasi ta'lim sifatini oshirishning muhim shartidir. Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilarining kasbiy kompetensiyasini shakllantirish uchun ularning his-tuyg'ularini tushunish, boshqarish va ulardan foydalanish bo'yicha mashg'ulotlar va dasturlar o'rganishni taqozo etadi.

Tarbiyachilar kasbiy kompetensiyasini oshirish uchun ularning his-tuyg'ularini tushunish, boshqarish va ulardan foydalanish bo'yicha nazariya va amaliy ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak. O'zbekistondagi maktabgacha ta'lim tashkilotlari muammolari va kamchiliklarini tushunish hamda shu muammolarga yechim topish uchun bir qator amaliy ishlar olib borish lozim.

His-tuyg'ular dunyosi inson hayotining barcha jabhalariga – odamlar bilan munosabatlarga, faoliyatga, muloqot va idrokka kiradi. Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilarining kasbiy faoliyati ham bundan mustasno emas. Bundan tashqari, u yuqori hissiy intensivlik va stressga moyillik bilan ajralib turadi.

Hissiy kompetensiya o'zining asosiy komponentlari tufayli umuman inson va xususan tarbiyachi salomatligini saqlash va mustahkamlashga yordam beradi.

Bolalar bilan hamkorlik qiladigan inson (bu to'g'ridan-to'g'ri tarbiyachi va o'qituvchilarga tegishli) o'z ehtiyojlari, da'volari va jamiyatning umidlari bo'lmish bolalar o'rtasida muvozanat topishga majbur bo'ladi. Uning eng muhim qismi o'z his-tuyg'ulariga bo'lgan munosabatidir. Bu his-tuyg'ularni bostirish psixologik muammolarga olib keladi. Shuning uchun inson o'z g'azabini tan olishi va uni yengishi muhim hisoblanadi. Tuyg'ularni yetarli darajada ifoda etishning ko'plab usullari mavjud. Tarbiyachi uchun ularni o'zlashtirishi va hayotga tatbiq etishi muhim sanaladi. Afsuski, his-tuyg'ularni bostirish va e'tiborsiz qoldirish amaliyoti o'tmishdagi narsa emas, u hozirgi vaqtda ham sog'liq uchun zararli ta'sir ko'rsatishda davom etmoqda.

Ta'lim sohasidagi ustuvor yo'nalishlardan biri bu pedagog xodimlarning kasbiy kompetentligini oshirish sanaladi.

Maktabgacha yoshdagi bola ta'sirchan, ijtimoiy va madaniy qadriyatlarni o'zlashtirishga ochiq, o'zini va boshqa odamlarni tushunishga intiladi. Shu sababli, mazkur obyekt bilan faoliyat yuritadigan pedagog-xodimlarda bir qator kasbiy kompetensiyalar shakllangan bo'lishi zarur.

Aynan maktabgacha ta'lim tashkilotida faoliyat yuritadigan pedagog-tarbiyachilar turli vaziyatlarda o'z his-tuyg'ularini boshqarishni bilishi muhim hisoblanadi. Hissiy barqarorlik ta'limiy jarayonda kasbiy kompetensiyani rivojlantirish qobiliyati sifatida pedagoglarda shakllanishi, boshqalar – tashkilotdagi xodimlar, ota-onalar bilan konstruktiv munosabatlar o'rnatish uchun zaruriy kasbiy kompetensiya hisoblanadi.

Kasbiy kompetensiyani egallashda tarbiyachi-pedagog quyidagi qobiliyatlarga ega bo'lishi zarur:

1. O'z-o'zini anglash – bu o'z-o'zini anglash qobiliyati;
2. O'z-o'zini boshqarish – o'z his-tuyg'ularini va istaklarini yengish qobiliyati;
3. Ijtimoiy sezgirlik – turli odamlar bilan aloqa o'rnatish qobiliyati;
4. Hissiyotlarni boshqarish – hamkorlik qilish qobiliyati, aloqalarni saqlab qolish, rivojlantirish va mustahkamlash qobiliyati.

Buyuk fransuz pedagogu Volter shunday degan edi: *“Tuyg'ular – bu kema yelkanini tutib turadigan shamol. U kemani harakatga keltirishi mumkin yoki uni cho'ktirishi mumkin...”*

Pedagog-tarbiyachining hissiy barqarorligi haqida ham xuddi shunday to'xtamga kelish mumkin: mehribon va yoqimli muloqot usullarini egallagan pedagog kasbiy mahorat cho'qqilarini egallagan mutaxassis sifatida tan olinadi.

Ta'lim va tarbiyaga shaxsga yo'naltirilgan yondashuv doirasida tarbiyachining hissiy kompetensiyasi yuqori baholanadi. Emotsional kompetensiyani rivojlantirish uchun kasbiy va shaxsiy sifatlar pedagogda barqaror rivojlanishi uchun pedagog doimiy ravishda rivojlanishi, zamonaviy metodlardan xabardor bo'lishi lozim.

Tarbiyachi-pedagog hissiy kompetensiyasining eng muhim ko'rsatkichlari – hissiy barqarorlik va hissiy moslashuvchanlikni rivojlantirish bo'yicha treninglarda ishtirok etishi hamda o'zini o'zi pedagog sifatidagi ijtimoiy qiyofasini yaratishi muhim va dolzarbdir.

Boshqalarning his-tuyg'ularini tan olish va ularni tushunish. Ushbu qobiliyatning yuqori darajasiga ega bo'lgan inson boshqalarning his-tuyg'ulari haqidagi signallarni yaxshi anglaydi va o'z nuqtayi nazarini o'zgartirishi, boshqa odamning psixologik holatini ko'rish va nima his qilayotganini tushunadi. Bunday odamlar empatik qobiliyatga ega hisoblanadi.



Boshqalarning his-tuyg'ulariga ijobiy ta'sir ko'rsatish qobiliyati yuqori darajadagi qobiliyatdir. O'qituvchi va tarbiyachilar uchun bu kompetensiya ayniqsa dolzarbdir. Tuyg'ularga ochiq, ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish, shuningdek, ularning paydo bo'lish sabablarini tushunish qobiliyati tarbiyachiga professional hayotda hissiy vaziyatlarda muammolarni boshdan kechirmaslik imkonini beradi. Tarbiyachi tomonidan bolalarning his-tuyg'ulariga ta'sir ko'rsatish, hayajonlangan yoki g'azablangan bolani tinchlantirish, ularga o'z his-tuyg'ularini anglashga yordam berish, qiziqish uyg'otish va kayfiyatini ko'tarish qobiliyatini o'z ichiga oladi.

Shu sababli, bugungi kunda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida faoliyat olib borayotgan pedagog-tarbiyachilarning kasbiy kompetentligini oshirish dolzarb hisoblanadi.

Hozirgi kunda maktabgacha va maktab ta'limi sohasi oldida turgan asosiy muammolardan biri – XXI asrda ijtimoiy-madaniy vaziyat sharoitida ta'limga yangicha yondashuvlarni izlashdir. O'zbekistonda sodir bo'layotgan ijtimoiy-siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar jamiyatning asosiy ijtimoiy institutlari, shu jumladan maktabgacha ta'lim tizimining faoliyatini ham biroz murakkablashtirdi. Jamiyatning rivojlanishi ko'p jihatdan fuqarolarning ijtimoiy faollik darajasi bilan belgilanadi, bu ta'lim natijalaridan biridir. Shu bilan birga, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayotda ro'y berayotgan ijobiy o'zgarishlar, hozirgi vaqtda O'zbekistonda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar ijtimoiy faol shaxsni tarbiyalashni taqozo etmoqda.

Zamonaviy maktabgacha ta'lim nazariyasi va amaliyotida umuminsoniy qadriyatlarni aks ettirishga qaratilgan yangi mazmunning rivojlanishi munosabati bilan ijtimoiy rivojlanish muammolari alohida ahamiyatga ega hisoblanadi. D.I. Feldshteyn maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiy rivojlanishi muammosini tahlil qilar ekan, maktabgacha pedagogika va psixologiya sohasidagi mavjud ma'lumotlar bolaning ijtimoiy aloqalarining o'sishi va rivojlanishi masalalarini yetarli darajada qamrab olmasligini ta'kidlaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, adabiyotlar tahliliga ko'ra, zamonaviy maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachisi nafaqat tarbiyachi-pedagoglarning shaxsiyatini rivojlantirish nazariyasi va usullarini o'zlashtirishi, balki ma'lum analitik va diagnostik madaniyatga ega bo'lishi, bolalarning yutuqlarini loyihalash qobiliyatiga ega bo'lishi, ya'ni bola o'rtasida vositachi bo'lishi, ijtimoiy-madaniy makon, madaniyat tillaridan individual idrok tillariga "tarjimon", inson fikrlari va qadriyatlari labirintlaridagi yo'lbo'shchi bo'lishi kerak. Ijtimoiylashtirish bolalarga harakatlar, baholash, munosabatlarni erkin tanlash uchun joy berish va xavfsizlik hissinini ta'minlashni o'z ichiga oladi, bu asosan u bilan hamkorlik qiladigan kattalarning shaxsiyati bilan belgilanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Majidov J.B. Sotsial intellekt va uning inson hayotidagi o'rni. Oriental Renaissance: Innovative, Natural and Social Sciences, 2 (2), 608–613.
2. Xushnazarova M.N. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilarining kasbiy kompetensiyasini takomillashtirish. Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2021.
3. Xo'jaqulov A. Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarida oilaga nisbatan qadriyatlarga oid munosabatni shakllantirish. Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2020.
4. Enikeev M.I. Umumiy psixologiya. – M.: PRIOR, 2000-yil.
5. Nemov R.S. Psixologiya. 1-kitob. – M.: Vados, 2001.
6. Ayupova S.L. Bolalar bog'chasi o'qituvchilarining hissiy holatini diagnostikasi: ahamiyati va qo'llaniladigan usullari // Konferensiya materiallari to'plamidagi maqola. – 2020. – B. 270–277.
7. Litvinov I.N. Maktabgacha ta'lim muassasalari o'qituvchilarining hissiy kompetensiyasini oshirish – bu bola shaxsini har tomonlama rivojlantirishning kalitidir // Ijtimoiy tadqiqot markazi konferensiyalari to'plami. – 2013-yil. – №53. – B. 142–146.
8. Motorina N. MTTning erta yosh guruhlarida o'qituvchilarining hissiy intellektini rivojlantirish // Maktabgacha ta'lim. – 2015. – №1. – B. 118–121.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №9

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.